

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.A. Abduvaliyeva

Markaziy Osiyo o'tta paleolit manzilgohlarining fanda o'rganilishi tarixi (I qism)	654
A.A. Nishonov	
Farg'ona vodiyisida Sevinchxojaxon va Sulton Saidxon kurashi	664
A.A. Aloxunov, B.B. Jo'raqulov	
Tunkat tarixi yozma va arxeologik manbalarda	673
A.A. Nishonov	
Sevinchxojaxon xonadoni tarixi manbalarda yoritilishi	677
R.X. Akbarov	
Turkiston yevropalik aholi vakillarining davlat dumasidagi ishtiroki	681
R.X. Akbarov	
Turkiston mahalliy vakillarining davlat dumasidagi ishtiroki	685
S.V. Yo'ldoshev	
Xalq o'yinlarining tarixiy ildizlari va lokal xususiyatlari	691
A.M. Maximov	
XX asrning 20-30 yillarda Buxoro amirligi muhohijrlari taqdiri	695
A.M. Maximov	
Usmon Xo'ja avlodlari qayerda?	698

ADABIYOTSHUNOSLIK**K.A. Topvoldiyev**

Use of antonyms in Russian fiction and in religious self-consciousness	701
--	-----

H.K. Sabirov

Средняя Азия в путевых заметках Ф. С. Ефремова	706
--	-----

A.P. Kosimov

Конвергенции наследия Т.Мурода с духовным богатством национальной и мировой культуры	710
--	-----

H.A. Jo'rayev, Y.I. Nishanov

Yusuf qissasi syujetining sayyorlik omillari	715
--	-----

H.M. Karimova

Отражение времени: концепция исторического романа в литературе	718
--	-----

Y.I. Nishanov

Umuminsoniy g'oyalar ifodasida ijodiy ta'sirning o'rni	722
--	-----

I.N. Doronina

«Отражение современных социальных реалий в современной Русской литературе»	726
--	-----

Э.Ф. Гиздулин

Мотив пандемии в художественной постапокалиптической фантастике	729
---	-----

X. Sharifiddinov

Zamon qiyofalangan tarixiy roman	732
--	-----

E.Ibragimova, N.Sharafutdinova

Teonimik tushuncha ifodalovchi mifologik obrazlar	735
---	-----

G.V. Abdullayeva

Lof she'rlar poetikasi va badiiy-estetik funksiyasi	738
---	-----

S.A. Xodjayev, Ch.I. Turg'unova

O'zbek va jahon folklori namunalarida uchlilik va beshlik timsollarining poetik kombinatsiyalari	745
--	-----

X.A. Abdulxamidova, D.U. Jamoliddinova

Isajon Sulton hikoyalarida peyzajning badiiy ifodalanishi	749
---	-----

X.J. Jamolova

Zullisonaynlik an'anasi va ijodiy ta'sir masalalari	752
---	-----

M.M. Xamidov

O'zbek tarixiy romanlarida qahramon talqini masalasiga doir	755
---	-----

R.M. Umurzakov

Bola obrazining nazariy muammolari	761
--	-----

J.B. Sayidolimov

"Vasiyatnoma" – kichik agiografik asar	765
--	-----



YUSUF QISSASI SYUJETINING SAYYORLIK OMILLARI

ПУТЕШЕСТВЕННЫЕ ФАКТОРЫ СЮЖЕТА ИСТОРИИ ЮСУФА

TRAVEL FACTORS OF THE PLOT OF USUR'S STORY

Jo'rayev Habibullo Abdusalomovich¹ ¹Farg'ona davlat universiteti adabiyotshunoslik kafedrasini professori, filologiya fanlari doktoriNishanov Yashin Izatullayevich²²Farg'ona davlat universiteti rus filologiyasi kafedrasini dotsenti*Annotatsiya*

Maqolada Yusuf haqidagi qissaning jahon, xususan, o'zbek og'zaki va yozma adabiyoti namunalarida aks etgan ta'siri, obraz, g'oya va badiiyat masalalaridagi mushtarak jihatlar haqida so'z yuritilgan. Yusufning mifologik qahramondan yetuk badiiy obraz darajasiga ko'tarilishidagi tadrijiy jarayonlar tahliliga tortilgan.

Аннотация

В статье говорится о влиянии истории Юсуфа, отраженной на примерах мировой, в частности, узбекской устной и письменной литературы, общих аспектах в вопросах образа, идеи и художественности. Анализируются постепенные процессы восхождения Юсуфа от мифологического героя к зрелому художественному образу.

Abstract

The article talks about the influence of Yusuf's story, reflected in examples of world, in particular, Uzbek oral and written literature, general aspects in matters of image, idea and artistry. The gradual processes of Yusuf's ascent from a mythological hero to a mature artistic image are analyzed.

Kalit so'zlar: adabiy ta'sir, ijodiy aloqa, sujet, obraz, g'oya, sayyorlik, badiiyat, milliy tushuncha, mahalliy kolorit.

Ключевые слова: литературное влияние, творческое общение, сюжет, образ, идея, пурпурство, художественность, национальная концепция, местный колорит.

Key words: literary influence, creative communication, plot, image, idea, travel, artistry, national concept, local color.

KIRISH

Sayyor sujet haqidagi tushunchalarni XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan nazariya turli xalqlar og'zaki ijodida bir-biriga o'xshash sujetlar mavjudligi adabiy asarlar bir madaniy-tarixiy hududdan boshqa madaniy-tarixiy hududlarga ko'chib yurishi bilan izohlaydi. Ayrim mutaxassislar sayyor sujetning vujudga kelishini xalqaro madaniy aloqalarning kuchayishi bilan bog'laydilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Professor D. Quronov va boshqalar tomonidan yaratilgan "Adabiyotshunoslik lug'ati"da mazkur xulosa mifologik maktab qarashlariga zid ekanligi ta'kidlanadi. [3, s. 267] Chunki mifologik maktab vakillari asosiy e'tiborni folklor genezisiga, migratsiyalar nazariyasi esa uning keyingi hayotiga qaratdi. Sayyor sujet nazariyasi folklorini muayan bir elat yoki xalq mulki tarzida tushunishni chekladi, unga turli yurt, davrlar poetik madaniyatlaridan o'zlashtirish natijasi deb qaradi. Albatta bunday qarashda muayan biroqlamalik bor. Zero, turli xalqlar folkloridagi o'xshashliklar faqat adabiy aloqa, o'zlashtirish bilangina cheklanmaydi, bunda tipologik o'xshashliklarni ham nazarga olmoq zarur. [4, s. 30] Shundan kelib chiqib, biz ham sayyor sujet xususiyatlarini Yusuf qissasi asosida izohlashga harakat qilamiz.

NATIJA VA MUHOKAMA

Yusuf bilan bog'liq sujet eng qadimiy va jahongashta adabiy hodisalardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, so'z san'ati jamiyat taraqqiyotining ko'zgusi sifatida insoniyat tarixining eng muhim qirralarini o'zida aks ettiradi. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrlarida badiiy adabiyotning ilk namunalari yuzaga kelar ekan, ularning qahramonlari ma'bud va ma'budalar sifatida maydonga chiqqan. Bugungi kunda yunon, hind va boshqa ayrim xalqlarning badiiy adabiyotida haligacha saqlanib kelayotgan ma'budlar obrazlari bundan yaqqol dalolatdir. O'zbek xalq og'zaki ijodida ham suv ma'budi Xubbi (yoki Erxubbi), yomg'ir ma'budasi Sust xotin, shamol ma'budi Haydar va boshqalarni esga olsak, bu hodisa xalq xotirasida o'z izarlari hanuzgacha yo'qotmaganligiga guvoh bo'lamiz. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, Yusuf obrazi ham qadimgi yahudiylarning ma'budlaridan biri hisoblanadi. Davrlar o'tgach, yakkaxudolik yuzaga kelgach, u ibridoij qavmlardan birining payg'ambari sifatida tilga olina boshlagan. Shuning uchun bo'lsa kerak, mazkur obraz payg'ambar sifatida yahudiylarning "Tavrot" nomli muqaddas kitobidan o'rinn olgan.

Bora-bora Yusuf obrazi dunyoning turli xalqlari tillarida afsona va rivoyatlar ko'rinishida tarqalib ketgan. Bu afsonaviy zot tashqi go'zalligi, ma'naviy barkamolligi, o'tkir zehni va tadbirkorligi bilan sevimli adabiy qahramonga aylana boshlagan. Har bir xalq yoki elat o'zi mansub bo'lgan mahalliy kolorit va milliy tushunchalarga asoslanib, Yusuf qissasi asosida dostonlar, ertaklar, rivoyat va afsonalar yaratganlar. Fikrimizni dostonligi ayrim epizodlarning turlicha talqinlari misolida tushuntirishimiz mumkin. Shunday epizodlardan biri Yusufning o'z akalari tomonidan sayrga olib chiqib, eski quduqqa tashlab kelishlaridir. Masalan, Sibir o'lkasida yashovchi ayrim elatlari yaratgan afsonaga ko'ra Yusufning akalari uni botqoqlik joylarga tashlab ketadilar. Kavkaz xalqlari orasida tarqalgan variantga ko'ra, Yusuf noma'lum g'orda adashtirib ketiladi. Zamonlar o'tib, tasavvuf ta'llimot sifatida shakllangan kezlarda komil inson timsoliga aylangan. [2, s. 211]

Yusuf haqidagi benazir hikoyatlar Yevropa mamlakatlari kitobxonlari qalbini ham zabit eta boshlagan. Shuning natijasida u haqidagi qissa va rivoyatlar, tafsilot hamda hikoyatlar "Iosif Prekrasniy" yoki "Iosif i Zalixa" nomlari ostida sayyor sujet sifatida zafarli yurishlarini davom ettirgan.

Keyinchalik Islom dinining muqaddas va ilohiy kitobi bo'lmish Qur'oni karimdan Yusuf surasi o'rinn olgach, bu zot musulmon olamida ham payg'ambarlardan biri sifatida shuhrat qozondi. Mazkur surada nozil qilingan oyatlar "Ey Muhammad, biz sizga qissalarning eng go'zalini bayon qilurmiz. Uni siz ilgari eshitmagansiz" ("Usuf" surasi, 3-oyat), deya boshlanadi. Ushbu sura Ollohnning azmu amrisiz biror narsa, voqe'a-hodisa sodir bo'imasligini, uning rasullari hamisha Haqning hifzu himoyatida bo'lishi to'g'risidagi vahiylardan iboratdir. Shuningdek, Ollohnning huzurida har bir zot o'z so'zi va xatti-harakati bilan mas'ul ekanligi bayon qilinadi.

Surada Yusuf hayotining eng muhim nuqtalari aks etgan. Uning tush ko'rishi, tushga ta'bir aytishi, akalari tomonidan aldab olib ketilib, qil qilib sotilishi, Misr hukmdoriga aylanishi hamda Zulayxo bilan bo'lib o'tgan mojarolar haqida xabar qilinadi. Qur'oni karim muqaddas diniy kitob bo'lganligi uchun mazkur surada Yusuf ko'proq payg'ambarga xos fazilat hamda xususiyatlari bilan namoyon bo'ladi. Bu sura uslubida o'zgacha latofat, ayricha joziba mavjudki, islam olamidagi eng buyuk qalam ahllari undan ta'sirlanib, she'ru dostonlar bitganlar, ulamolar esa bu sura xussida jild-jild kitoblar tasnif etganlar. Shunday asarlardan birida "Yusuf surasi jannah ahllari jannahda ham rohat bilan tilovat qilib yuradigan suralardandir" deyilgan bo'lsa, yana birida "Har qanday g'amtashvishga botgan mahzun kishi Yusuf surasini eshitishi bilan orom-osoyish topur", deyiladi.

Fors-tojik adabiyotining ulug' namoyandasasi Abulqosim Firdavsiy "Yusuf va Zulayxo" dostonini yaratganidan so'ng mazkur obraz va sujet fors-tojik adabiyotidan ham mustahkam o'rinn oldi. Aytish mumkinki, o'nlab so'z san'atkorlari bu an'anani muvaffaqiyatli davom etdirdilar. Fors-tojik adabiyotining yana bir ulug' namoyandasasi Abdurahmon Jomiy mazkur sujetning mukammal variantini yaratib, uni o'z "Xamsa"sigi to'rtinchi doston sifatida kiritdi. Buning boisini Jomiy dostonning kirish qismida shunday izohlagan: "Men xamsalardan joy olgan an'anaviy Bahrom haqidagi ertaklardan ko'ra eng go'zal qissa hisoblanadigan Yusuf va Zulayxo haqida doston yaratishni afzal bildim". Darhaqiqat, Mavlono Abdurahmon Jomiy ushbu doston sujetiga komil inson, uning xislat hamda fazilatlari haqida hikoya qiluvchi boblarni joylashtirdi, tasavvuf falsafasining muhim jihatlarini yuksak badiiy bayon etdi. Bu asar bir necha bor tarjima qilinib, Sharq xalqlari, jumladan o'zbek xalqi ma'naviy-madaniy hayotida ham muhim o'rinn egalladi.

ADABIYOTSHUNOSLIK

O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida Yusuf bilan bog'liq sujet Nosiriddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asari bilan boshlanadi.

"Qisasi Rabg'uziy" asari o'z davridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy munosabatlarning ham ko'zgusidir, desak mubolag'a bo'lmaydi. Jamiat vakillarining tabaqalarga bo'linishi, inson huquqlari va shaxs erki masalalari ham ma'naviy-ruhiy holatlar fonida badiiy aks ettirilgan.

Muallif qadimgi diniy afsonalar, mifologik obrazlardan o'z davri muammolarini aks ettirish, jamiat va shaxs munosabatlariga e'tiborni qaratish, qolaversa, badiiyat talablariga to'la javob bera oladigan obrazlar yaratishga tuyassar bo'lgan. Shuning uchun ham bu mavzu keyinchalik Durbek tomonidan "Yusuf va Zulayxo" nomli mashhur epik dostonning maydonga kelishiga zamin hozirlagan. Muhimi shundaki, Durbek doston to'qimasiga katta mahorat bilan o'zi yashab turgan muhitda yuz bergan tarixiy voqealarni singdirib yuborishga muvaffaq bo'lgan. U Yusuf hamda Zulayxo timsolida ikki qalb o'rtaida tug'ilgan haqiqiy muhabbatni (ularning diniy e'tiqodlaridan qat'iy nazar) milliy tushunchalarimizga mos, mahalliy hayotimizga xos tarzda mohirlik bilan tasvirlay olgan. Durbek nomi o'tgan asrning 20- yillarigacha ilmiy adabiyotga ma'lum emas edi. Uning «Yusuf va Zulayxo» dostonining qo'lozmasi topilgach, ilmiy ishlar birmuncha jonlandi. Fitratning 1929-yili nashr etilgan «O'zbek adabiyotidan namunalar» majmuasiga ham kiritiladi. Doston 1959-yili to'liq holda o'zbek tilida nashr etildi. Ba'zi olimlar (masalan, D.P. Voronovskiy Astronomi Sredney Azii ot Muhammeda al- Xorazmi do Ulugbeka i yego shkoli. Tashkent, 1965) «Yusuf va Zulayxo» dostonining muallifi Durbek emas, Ulug'bek degan fikrlarni ilgari surganlar. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixinining ko'zga ko'ringan olim tadqiqotchilari (E. E. Bertels, H. Zarifov, I. Sulton, P. Shamsiyev, Oybek, O. Sharafiddinov, Shayxzoda, V. Zohidov, I. Sulton, A. Qayumov, A. Hayitmetov, N. Mallayev) asar muallifi Durbek ekanligini ta'kidlaydilar. Ular asarda Durbek nomiga ishora qilinganiga asoslanadilar.

XULOSA

Durbek hayoti va faoliyatiga oid manbalar uning yagona asari orqali yetib kelgan. Asar hijriy 812, melodiy hisob bilan 1409-yili yozilgan. Doston Balx shahrida yaratilgan. Mazkur doston Yusuf haqidagi og'zaki va yozma manbalardan unumli foydalanilgani, ijodiy ta'sir va adabiy aloqalar mahsuli bo'lganligi uchun ham ko'p asrlardan buyon kitobxonlarning sevimli ma'naviy mulki sifatida yashab kelmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. T.: "O'zbekiston" 2018
2. Nazarov B. Islom agiografiyasi tizimida maqomotning o'mi va uning badiiy-uslubiy xususiyatlari. T.: 2007
3. Qur'onov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. T.: 2010.
4. Abdullayeva D. O'zbek mumtoz adabiyotida "masal"lar genezisi, tipologiyasi, funksional tahlili. T.: 2020.